

USMON AZIM SHE'RLARIDA QO'LLANGAN KONTEKSTUAL ANTONIMLAR USLUBIYATI

Nosirova Sevinch

*O'zbek tili va adabiyotni
talimi yonalishi 3-kurs talabasi*

Ilmiy rahbar:

Alimova Madina

Annotatsiya. Mazkur maqolada sevimli shoirimiz Usmon Azim she'rlarida mahorat bilan qo'llangan zidlash munosabati kontekstual xarakterda bo'lgan antonimlarning uslubiyatini yoritishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar. Antonimlar, kontekstual antonimlar, zidlash munosabati, leksik-semantik kategoriya, uslubiy vosita, badiiy nutq.

Tilshunoslik ilmining keyingi taraqqiyoti til nazariyasi bilan bir qatorda uning amaliy tomonlarini ham o'rganishni talab qilmoqda. Ana shunday amaliy mashg'ulotlardan biri badiiy asarning til xususiyatlarini o'rganishdir [1].

Hozirgi zamon o'zbek adabiyotida shunday ustoz ijodkorlar borki, ularning butun umri, ijodi, izlanishlari o'z xalqiga, milliy adabiyotimiz rivojiga kamtarlik bilan, xolis xizmat qilishning yorqin namunasidir. Ana shunday ijodkorlardan biri sevimli shoirimiz Usmon Azimdir.

Shoirning ona yurtiga muhabbat, uning bunyodkor, mehnatsevar, olivjanob kishilar mehnatiga hurmati, tabiat go'zalliklari, yaratish zavqi, buyuk ajdodlarga so'nmas ehtiromi, do'stlik, muhabbat, vatanga sadoqat, vafo, insoniylik kabi bezavol fazilatlarni ulug'lash kayfiyati aks etgan she'rlarida qo'llangan kontekstual antonimlarni tahlil qilishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Nutqda mantiqiy jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tushuncha, fikr, obraz, predmet va xarakterlarni qiylash yo'li bilan ta'sirchanlik oshiriladigan antiteza usulida, asosan, antonimiya hodisasiga tayaniladi. Antiteza deyilganda, odatda, "umumlashgan, tipiklashgan, tilda obyektiv amal qiladigan shunday qarama-qarshiliklar tushuniladiki, ular

o‘zida badiiy ta’sir maqsadida ma’lum ijodiy qayta ishlashni mujassam qiladi”[2]. Usmon Azim she’rlarida ham antonimlar juda ko‘p obrazlarda ana shu maqsadga bo‘ysundiradi.

Zidlash munosabati kontekstual xarakterda ham bo’ladi. Antonimik munosabat nutq jarayonida, ya’ni so‘zlarni ma’lum kontekstda qo‘llashdan voqe bo‘ladi. Bu kontekstual antonimlar deyiladi. Masalan:

Eshigini bekitdi **behisht** –

Qarshimizda yonar **jahannam**.

“Ha, Tangri-bir! Ha, Tangri-yakto...” –

Buncha tezkor tavbaning kuchi:

Ushbu misolda behisht va jahannam so‘zlari o’zaro zidlangan.

Leksik-semantik kategoriyalarning muhim turlaridan biri zid ma’noli so‘zlar-antonimlar bo’lib, ular istalgan adabiy turning lug‘at tarkibidan o‘rin oladi va badiiy ijodda o‘z mavqeyiga egaligi bilan ahamiyat kasb etadi.

Siz **qarg‘aysiz** taqdiringizni,

Ham **aytasiz** unga **tashakkur**:

Ushbu leksik-semantik hodisa lug‘at tarkibidagi bir so‘z turkumi doirasida voqelanadi hamda asarning tasviriyy-badiiy xususiyatlarini oshirish, rang-barang qilishda ishtiroy etadi.

Usmon Azim ijodidan olingan yuqoridagi nutqiy parchada qarg‘amoq va tashakkur aytmoq fe’llari kontekstual antonimlikni yuzaga keltirganligini ko’rishimiz mumkin.

Men baxtdan babaxtlig‘ topdim-oqibat gap shunda,

Rohatdan zahmatni topdim – oqibat gap shunda.

Antonimlar nutqda katta ahamiyatga ega. Ular predmet va hodisalar orasidan farqni to‘g‘ri ifodalay olish imkonini beradi. Antonimlarni to‘g‘ri qo‘llay olmaslik qo‘pol xatoga olib keladi. Yuqoridagi misolda **rohat** va **zulmat** so‘zlari matn ichidagina antonimlikni hosil qilib, tasvir tiniqligini ta’minlashga bo‘ysundirilgan.

Mening ko‘nglimda **ayoz**,

Sening ko‘nglingda **yozdir**.

Yoki

Nafratim va **sevgimni**

Har bitta she'rimda

Aytayapman-ku!

Usmon Azimning yuqoridagi misralarida **ayoz-yoz, sevgi-nafrat** kontekstual antonimlar tilning kuchli uslubiy vositalardan sifatida voqelikni, narsa va hodisalarning sifat va xususiyatlaridagi farqni ko'rsatishda, bir-biriga qarama-qarshi qo'yib tasvirlashda ishlatiladi. Bu o'rinda, ayniqsa, she'riy asarlarda bir-biriga zid fikr va hissiyotlarni ifodalashda qo'llaniladi.

Yana yo'lga chiqsammikin,

Chiqsammikin shaylanib.

Visol menga kerak emas,

Mayli, o'ldirsin **hijron**...

Xayol ichra tinch oqar suhbat –

Savol uxlар, mizg'izydi **javob**.

Mazkur misrada **savol-javob, visol-hijron** so'zлari kontekstual antonimlardir. Bu o'rinda antonimlarning qo'lannilishi badiiy nutqning ifodaliligin, bo'yoqdorligini ta'minlashda qulay vositalardan biri hisoblanadi.

Men ketaman: yo'llarim – tuman,

Men ketaman: **saratonim** – **qish**.

Quyidagi misralarda ham buni ko'rishimiz mumkin.

Shunday ozod qushlar qanday **o'ladi**,

Shunday ozod qushlar **yashaydi** qanday?

She'riyatda antonim so'zlar ifodalikni kuchaytirish uchun qarama-qarshi tushunchalarni, fikr, obraz, narsalarni, shaxslarning xarakterlarini qiyoslash yoki bir xil narsa-hodisalarning daraja jihatidan qarama-qarshi holatini tasvirlash uchun foydalilanildi. Shoir she'rlarida qo'llangan saraton-qish, o'lmoq-yashamoq kontekstual antonimlari ham xuddi shu maqsadlarga yo'naltirilgan.

Usmon Azimning quyidagi "Grafika" she'rida boshdan oxirigacha antonim so'zlar qarama-qarshi holatni qo'yilgan belgi yoki xususiyat esa biri ikkinchisini inkor etadi.

Ko'zing- **qaro** sening, qoshlarining **qaro**,

Yuzlaring **oq** sening, kulishlarining **oq**.

Qo‘lingdagi ta’na toshlarining **qaro**,

Menga g‘amgin boqib turishlarining **oq**.

Unutishing – **qaro**, hijroning **qaro**,

Sog`inching **oppoqdir**, xatlarining-**oppoq**.

Qarodir yurganining uch mehr aro,

Menga tashlab ketgan dardlaring- **oppoq**.

Shommi, yo saharmi – vaqtimdir **qaro**,

Sen deb to‘kayotgan yoshlarim **oppoq**.

Sening ham, mening ham baxtimdir **qaro**,

O‘ttiz to`rt yoshingda sochlaring **oppoq**.

Ishon, yurak **oqdir**, **qarodir** taqdir,

Oq-qora bo‘yoqlar bizning bog‘larda

Men million bo‘yoqni bilardim, axir,

Ikkimiz baxtiyor bo‘lgan chog‘larda.

Misralarda sifat so‘z turkumida oid oq va qora so‘zlari metafora asosida ko‘chma ma’noda qo‘llanib antonimlikni hosil qilgan.

Usmon Azimning “So‘nggi uchrashuv” she’rida fe’l so‘z turkumiga oid kulmoq va ko‘ziga yosh olmoq so‘zlar matniy antonimlikni voqelantirgan hamda ifodalilikni va ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan:

Avval hayron qolding, quvonding, **kulding**,

Jim qotding. **Ko‘zingga yosh olding** birdan

So‘ng begonaday menga termulding,

Yig‘i nuqsi urgan nigohing bilan.

Quyidagi misralarda ham xuddi shu xildagi nutqiy antonimlarni fikrni yorqin tasvirini chizishda, lirik qahramonning ruhiy holatini ochib berishda ishtirok etganligini ko‘rishimiz mumkin:

Avval hayron qoldim. Beparvo **kuldum**.

Jim qotdim. Go‘dakday **yig‘ladim** birdan.

So‘gnra begonaday ko‘kka termuldim-

Men hanuz falakka begonadayman...

Kontekstual antonimlar hosil qilishning asosiy sababi zid semalardir. Leksik antonimiyada bo‘lgani kabi, kontekstual antonimlarda ham bir-biriga zid semalar bo‘lishi shart.

Usmon Azim she’riyatining lisoniy tahlil qilish jarayonida shoirning tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari yaqqol reallashgan kontekstual antonimlarni aniqlab, mazkur birliklar adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida atroflicha mulohaza yuritdik.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Doniyorov X., Yo’ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. Toshkent, “Fan”, 1988, 78- bet.
2. Shukurov R. O‘zbek tilida antonimlar. – Toshkent: Fan, 1977.
3. Usmon Azim “Saylanma”. “Sharq”. T.–1995. 143 bet.